

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 229-sonli qarori haqida

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xotin-qizlarni qo`llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 2018 yil 2 fevral kungi PF-5325-son [Farmoniga](#) muvofiq O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 26 martdagi 229-sonli qarori ijrosini ta`minlash maqsadida **Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:**

1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risidagi qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мазкур қарори билан:

a) Куйидагилар:

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот марказининг ташкилий тузилмаси 1-иловага мувофиқ;

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi boshqaruv xodimlarining cheklangan umumiy soni 24 kishidan iborat markaziy apparatining tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq;

"Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazining Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalarining namunaviy tuzilmasi 3-ilovaga muvofiq;

"Oila" markazining Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari va tumanlar (shaharlar) bo`limlari boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni 3a-ilovaga muvofiq;

"Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi tumanlar (shaharlar) bo`limlarining boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soniga nisbatan toifalangan tumanlar (shaharlar) ro`yxati 4-ilovaga muvofiq;

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazining Ustavi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

"Oila" markazi direktoriga, zaruriyat bo`lganda, "Oila" markazining markaziy apparati, "Oila" markazining Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari, shuningdek, "Oila" markazining tumanlar (shaharlar) bo`limlari tuzilmasiga boshqaruv xodimlarining cheklangan umumiy soni doirasida o`zgartirishlar kiritish huquqi berilganligi;

b) O`zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o`rinbosari — Xotin-qizlar qo`mitasi raisi T.K. Narbaevaga, "Oila" markazi direktoriga:

15 kun muddatda "Oila" markazining markaziy apparatini yuqori malakali va tashabbuskor kadrlar bilan to`ldirish choralari ko`rish;

bir oy muddatda Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda "Oila" markazining Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari, shuningdek, "Oila" markazining tumanlar (shaharlar) bo`limlariga zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali va tashabbuskor kadrlar bilan to`ldirilishini ta`minlash topshirilganligi;

v) "Oila" markazi oila institutini mustahkamlash va rivojlantirish, jamiyatda zamonaviy namunali oila mezonlarini joriy etish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni tashkil etish va o`tkazish sohasida respublikaning etakchi ilmiy-tadqiqot ekspert muassasasi hisoblanishi;

"Oila" markazi oila institutini rivojlantirish sohasida amalga oshiriladigan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni ekspertizadan o`tkazishda ishtirok etishi, tadqiqotlar natijalari amaliyotga tatbiq etilishini ta`minlashi belgilanganligi;

g) Quyidagilar:

joriy ta`minotga hamda O`zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan o`tkaziladigan tanlovlar natijalari bo`yicha ilmiy loyihalarni bajarishga ajratiladigan O`zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag`lari, Xotin-qizlarni va oilani qo`llab-quvvatlash jamoat fondi mablag`lari, xalqaro va xorijiy tashkilotlar va jamg`armalarning grantlari, shartnoma asosida noshirlik faoliyatini amalga oshirishdan, tadqiqotlar o`tkazishdan va ishlar bajarish (xizmat ko`rsatish)dan tushadigan mablag`lar hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalari "Oila" markazi markaziy apparati faoliyatini moliyalashtirishi;

tegishli ravishda Qoraqalpog`iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari mablag`lari, xalqaro va xorijiy tashkilotlar va jamg`armalarning grantlari, shartnoma asosida noshirlik faoliyatini amalga oshirishdan, tadqiqotlar o`tkazishdan va ishlar bajarish (xizmat ko`rsatish)dan tushadigan mablag`lar hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar "Oila" markazining Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari, "Oila" markazining tuman (shahar) bo`limlari faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilanganligi;

d) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining xarajatlari parametrlarida "Oila" markazi va uning hududiy bo'linmalarining ta'minotiga 2018 yilda zarur bo'lgan byudjet mablag'larini ajratishi va keyingi yillardan boshlab mablag' ajratishni nazarda tutishi;

"Oila" markaziga 3 ta avtotransport vositasini saqlash uchun limit ajratishi;

j) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda "Oila" markaziga oila institutini qo'llab-quvvatlash va oilaviy qadriyatlarini rivojlantirish sohasida faoliyat yuritayotgan xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik o'rnatishda va rivojlantirishda har tomonlama ko'maklashishi;

z) "Oila" markazi Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va O'zbekiston matbuot va axborot agentligi bilan birgalikda ommaviy axborot vositalarida va Internet jahon axborot tarmog'ida «Sog'lom oila — sog'lom jamiyat» kontseptual g'oyasini keng targ'ib qilish bo'yicha tadbirlar o'tkazilishini ta'minlashi;

i) "Oila" markaziga:

1. normativ-huquqiy hujjatlar matnlari hamda zarur bo'lgan taqdirda ularga tegishli axborot-tahliliy materiallar elektron shaklda yuboriladigan davlat organlari va boshqa tashkilotlar ro'yxatiga;

2. quyidagilarga:

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuraturasi, Oliy sudning statistik ma'lumotlari;

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining Ommaviy kommunikatsiya sohasini monitoring qilish markazi byulletenlari va kundalik ma'lumotlari to'plami;

xorijiy matbuot obzorlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar markazining tahliliy axborotlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Ijtimoiy tadqiqotlar instituti hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Prognozlash va makroiqtisodiy tadqiqotlar institutining tahliliy materiallari, majburiy tarzda yuboriladigan tashkilotlar ro'yxatiga kiritilganligi;

k) O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi "Oila" markazini belgilangan tartibda zarur telefon aloqasi, shu jumladan hukumat aloqasi bilan ta'minlanishi;

l) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi "Oila" markazi bilan birgalikda 2018 yil 15 aprelgacha "Oila" markazining hududiy bo'linmalarini joylashtirish choralarini ko'rishi;

m) O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 6-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari-Xotin-qizlar qo'mitasi raisi (Z.Ibragimova)ga, "Oila" markazi Qoraqalpog'iston Respublikasi Boshqarmasiga:

- 15 kun muddatda "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi Qoraqalpog'iston Respublikasi Boshqarmasini yuqori malakali va tashabbuskor kadrlar bilan to'ldirish choralarini ko'rish;

- 1 oy muddatda "Oila" markazi Qoraqalpog'iston Respublikasi Boshqarmasining shahar va tumanlar bo'limlariga zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali va tashabbuskor kadrlar bilan to'ldirilishini ta'minlash topshirilsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga:

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, shahar va tumanlar mahalliy byudjetlari mablag'lari, xalqaro va xorijiy tashkilotlar va jamg'armalarning grantlari shartnoma asosida noshirlik faoliyatini amalga oshirishdan, tadqiqotlar o'tkazishdan va ishlar bajarish (xizmat ko'rsatish)dan tushadigan mablag'lar hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar "Oila" markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi Boshqarmasi, shahar va tumanlar bo'linmalari faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilashi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining xarajatlari parametrlarida "Oila" markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi Boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalarining ta'minotiga 2018 yilda zarur bo'lgan byudjet mablag'larini ajratishi va keyingi yillardan boshlab mablag' ajratishni nazarda tutishi;

"Oila" markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi Boshqarmasiga avtotransport vositasini saqlash uchun limit ajratishi topshirilsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Qoraqalpog'iston Teleradiokompaniyasi va Qoraqalpog' matbuot agentligi bilan birgalikda ommaviy axborot vositalarida va Internet jahon axborot tarmog'ida «Sog'lom oila — sog'lom jamiyat» kontseptual g'oyasini keng targ'ib qilish bo'yicha tadbirlar o'tkazilishi tavsiya etilsin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Prokuraturasi va sud idoralari:

"Oila" markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi Boshqarmasini normativ-huquqiy hujjatlar matnlari hamda zarur bo'lgan taqdirda ularga tegishli axborot-tahliliy materiallar elektron shaklda yuboriladigan davlat organlari va boshqa tashkilotlar ro'yxatiga;

statistik ma'lumotlari belgilangan tartibda yuboriladigan tashkilotlar ro'yxatiga kiritilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy

boshqarmasi "Oila" markazining Qoraqalpog`iston Respublikasi Boshqarmasini belgilangan tartibda zarur telefon aloqasi, shu jumladan hukumat aloqasi bilan ta`minlasin.

8. Qoraqalpog`iston Respublikasi Xotin-qizlar qo`mitasi, shahar va tumanlar hokimliklari, Qoraqalpog`iston Respublikasi Hususiyashtirilgan korxonalariga ko`maklashish va raqobatni rivojlantirish qo`mitasi "Oila" markazining Qoraqalpog`iston Respublikasi Boshqarmasi bilan birgalikda 2018 yil 15 aprelgacha "Oila" markazining Qoraqalpog`iston Respublikasi Boshqarmasini va uning shahar va tumanlardagi bo`linmalarini joylashtirish choralarini ko`rsinlar.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosari - Xotin-qizlar qo`mitasi raisi Z.Ibragimova hamda "Oila" markazining Qoraqalpog`iston Respublikasi Boshqarmasi boshlig`i zimmlariga yuklatilsin.

Qoraqalpog`iston Respublikasi

Vazirlar Kengashining Raisi

Q.Sariev

Ko'rib chiqildi:

- 
- 
- 
- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)